

Kredit mahsuloti pasporti			
Kredit mahsuloti nomi	YANGI TADBIRKOR		
Kredit turi	Kredit liniyasi ochmasdan/Ochiq kredit liniyasi orqali		
Kredit maqsadi	Qo'shimcha yangi ish o'rinlari yaratish asosida qonun bilan ta'qiqlanmagan tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish va rivojlantirish uchun		
Kredit oluvchilar	Faoliyat yuritib kelayotgan davri uch (3) oydan kam bo`lmagan, doimiy faoliyat yuritayotgan va muntazam pul tushumiga ega bo`lgan tadbirkorlik faoliyati bilan shug`ullanayotgan <u>yakka tartibdagi tadbirkorlar (xususiy tadbirkorlar)</u>		
Kredit valyutasi	O`zbekiston Respublikasi milliy valyutasida yoki xorijiy valyuta (ekvivalenti) da		
Kredit miqdori	300 000 000,0 (Uch yuz million) so`mgacha yoki uning ekvivalenti miqdorida xorijiy valyutada		
Yaratiladigan yangi ishchi o'rinlari soni	3 tadan 5 nafargacha		
Kredit muddati	12 oy muddatgacha	18 oy muddatgacha	24 oy muddatgacha
Milliy valyutada foiz stavkasi	yillik 24,00 %	yillik 26,0 % dan kam bo`lmagan	yillik 27,99 % dan kam bo`lmagan
Xorijiy valyutada foiz stavkasi	yillik 12,00 %	yillik 14,00% dan kam bo`lmagan	yillik 16,0 % dan kam bo`lmagan
Imtiyozli davr	6 oy muddatgacha		
Alohida shartlari	Kredit summasi mijozning oxirgi 3 oy davomida hisob-raqamiga asosiy faoliyati doirasida kelib tushgan pul mablag`larning 50 foizidan oshmagan miqdorda o`rnatiladi.		
Kreditni so`ndirish tartibi	Differentsial/Annuitet		
Qo'shimcha shartlar	1. Loyiha yuzasidan yaratilishi rejalashtirilgan ish o`rinlari kreditdan foydalanish davri davomida qisqartirib yuborilsa, kredit foiz stavkasiga berilgan imtiyozlar bekor qilinadi va dastlabki belgilangan foiz stavkasig 4 punkt oshirilgan miqdorda qayta hisob-kitob qilinadi va undiriladi. Ushbu shartlar kredit shartnomasida ko'rsatib o'tiladi. 2. Kredit foizini o'rnatish uchun kredit ajratilgan sanadan keyin yaratiladigan qo`shimcha ishchi o`rni hisobga olinadi. (Ish o'rni yaratilishi muddati asoslantirilishi lozim). Ishchi o`rni yaratilganligi Davlat soliq xizmati organida YaTT tomonidan yollangan xodimni hisobga qo`yish kartochkasi orqali o`rganiladi.		
Kredit qarzdorligi mavjud hollarda kredit miqdorini hisoblash	Mijozning Bank oldida kredit qarzdorligi mavjud bo`lgan taqdirda jami qarzdorlik 3,5 mlrd.so'm ekvivalentidagi summasidan (Markaziy Bankning ko'rib chiqilayotgan kundagi rasmiy kursi bo'yicha aniqlanadi) oshmasligi lozim. Nazorat asosida bir qarzdor yoki o`zaro aloqador qarzdorlar guruhiga ajratilgan kreditlar bilan birgalikda hisoblanganda, jami 5,0 mlrd.so'm ekvivalentidagi summasidan (Markaziy Bankning ko'rib chiqilayotgan kundagi rasmiy kursi bo'yicha aniqlanadi) oshmasligi lozim. Bunda ushbu belgilangan limitdan yuqori bo`lgan va/yoki foiz stavkasi Modulli kreditlash pasportlarida belgilangan miqdordan past bo`lgan buyurtmanomalar tegishli Kollegial organning muhokamasiga qo`yilishi mumkin;		
Kredit ta'minoti	Sug`urtalash shartlari bank uchun maqbul bo`lgan sug`urta kompaniyasining kreditning qaytmasligi xataridan sug`urta polisi		
Yakka tartibdagi tadbirkorlardan talab etiladigan hujjatlar	Yuridik hujjatlar	Kredit arizasi, guvohnoma, pasport nusxasi, faoliyat ko`rsatayotgan joyi bo'yicha ma'lumotlar;	
	Moliyaviy hujjatlar va loyiha ma'lumotlari	Mijoz tomonidan shakllantirilgan va pul oqimlari prognozi ko`rsatilgan holda kredit mablag`larining qaytarilishini asoslab ko`rsatib beruvchi hisob kitoblar hamda loyihani amalga oshirish bilan bog`liq boshqa hujjatlar	
Alohida shartlar	Mazkur kredit mahsuloti "Korporativ" va "Mikro-qarz" turidagi modulli kreditlari bo`yicha joriy kredit qarzdorligi mavjud bo`lgan tadbirkorlik subyektlariga ajratilmaydi, shuningdek mazkur modulli kredit mahsuloti bo`yicha bir qarzdonga ajratiladigan kredit qoldig`i miqdori 300 000 000 (uch yuz million) so`mdan oshmasligi lozim.		